**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021. P.01.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ZUXUROVA DILRABO ABDULAZIZ QIZI

TALABA QIZLARDA “MEN KONSEPSIYASI” SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 159.9.072:316.6:378(575.1)

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по психологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Psychological Sciences

Zuxurova Dilrabo Abdulaziz qizi
Talaba qizlarda “Men konsepsiyasi” shakillanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar.....3

Зухурова Дилрабо Абдулазиз кизи
Социально-психологические факторы, влияющие на формирование “Я-концепции” у студенток 27

Zukhurova Dilrabo Abdulaziz kizi
Socio-psychological factors influencing the formation of «self-concept»in female students.....51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....56

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021. P.01.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ZUXUROVA DILRABO ABDULAZIZ QIZI

TALABA QIZLARDA “MEN KONSEPSIYASI” SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/P857 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna** psixologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Baratov Sharif Ramazanovich** psixologiya fanlari doktori, professor
	Lutfullayeva Nigora Xalimbayevna psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.01.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4-qavat, 418-xona. Tel.: (+99871) 246-52-74; faks: (+99871) 246-53-21; (+99871) 246-02-04; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Bosh o‘quv binosi, “B” qism, 2-qavat, 217-xona. Tel.: (+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____”_____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____”_____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

O‘.B.Shamsiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

A.S.Turakulova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

N.S.Safayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni har taraflama chuqur tahlil qila oladigan shaxsning o‘zini- o‘zi to‘g‘ri va adekvat baholay olishini amalga oshirish, shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayonlari, gender tenglikni ta’minlash va yosh avlodni rivojlantirish masalalari ko‘plab mamlakatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan ayollar o‘zlarining qobiliyatlari va imkoniyatlarini ancha yuqori baholashadi. Jahon miqyosida qizlarning 49 % o‘rta maktabni tugatish imkoniyatiga ega emas, bu esa ularning o‘zini anglash darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi[1]. Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan “Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)”ning 5-maqsadi gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan[2]. Ushbu maqsadga erishishda shaxsning o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Talaba qizlarning o‘z qobiliyatlarini anglash va ijtimoiy muhitda o‘zini qadrlash qobiliyatini rivojlantirish ularning ijtimoiy hamda iqtisodiy faolligini oshirish dolzarb muammolardan bo‘lib kelmoqda.

Dunyoda yoshlarning o‘z-o‘zini anglash masalasi psixologiya va ta’lim sohasidagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shaxsning o‘z “Men”ini anglash jarayoni uning professional, ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Xalqaro tadqiqotlar, masalan, Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (APA) tomonidan olib borilgan ishlarda shaxsning o‘zini anglash qobiliyatlari ruhiy salomatlikni yaxshilash, ijtimoiy faoliyatda ishtirokini oshirish va jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lishiga ko‘maklashishi ko‘rsatilgan[3]. Jahon Banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma’lumotlariga ko‘ra, ayollarning iqtisodiy hayotda faolligini oshirish nafaqat gender tenglikni ta’minlaydi, balki mamlakatlar iqtisodiy o‘sishiga ham hissa qo‘shadi. Talaba qizlarda “Men konsepsiyasi”ning shakllanishi ularga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlik va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi[4]. Talaba qizlarda “Men konsepsiyasi”ni shakllantirish nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarbdir. Bu jarayon yosh avlodning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi, shuningdek, global gender tenglikni ta’minlashga hissa qo‘shadi. Ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar xalqaro maydonda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli tadqiqotlarni olib boorish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu siyosat, xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan xotin-qizlar faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur orqali amalga oshirilmoqda. Milliy dastur O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan

[1] Education Data Release – September 2023
[2] https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs?utm
[3] Students Experiencing Low Self-esteem or Low Perceptions of Competence
[4] DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a876

himoya qilish to‘g‘risida”, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi qoidalar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan[5]. Bu jarayon talaba qizlarda “Men konsepsiyasi”ning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganishga zarur asos bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[6] farmonlari va boshqa ushbu sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish mezonlari mazkur dissertatsiya tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamalakatimiz psixolog olimlaridan G.A.Abduqahorova, Z.A.Abdurahmonova, Y.G.Alimova, M.B.Baxriddinova, H.N.Bekmurodova, M.G.Davletshin, Sh.A.Do‘smuxamedova, I.B.Juvanov, U.S.Jumayev, V.M.Karimova N.G.Kamilova, D.G.Muxamedova, I.I.Maxmudov, Yu.G.Qarayeva, R.I.Sunnatova, A.Sobirova, Sh.M.Sultonova, G.B.Xudayqulova, E.G‘.G‘oziyev, U.B.Shamsiyev, G‘.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan “Men” konsepsiyasiga oid tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan B.G.Ananyev, A.A.Bodalev, L.N.Kuleshova, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, L.S.Vigotskiy[7] kabilarning “Men” konsepsiyasi bo‘yicha tadqiqotlari ko‘proq shaxsning rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy moslashuv va pedagogik jarayonlar bilan bog‘liq. Ushbu olimlarning ishlari shaxsiy taraqqiyot va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritib, “Men konsepsiyasi”ning nazariy va amaliy asoslarini boyitgan.

---

[5] https://lex.uz/uz/docs/-5899498

[6] PF-60-son 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida URL: https://lex.uz/uz/docs/-5841063

[7] Ананьев Б.Г. О принципах современного человекознания. – М., 1977. – 187 с.; Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослого человека. Акмеология – новая наука. Доступно: 2005 // http//hpsy/ru/public/x798/htlm; Выготский Л.С. Психология развития человека. – М., 2005; Рубинштейн С.Л. Принцип творческой самодеятельности // Вопросы психологии, 1986. – № 4. – 47 с.; Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека. – М., 1995; Столин В.В. Самосознание личности. – М., 1983.

Xorij psixolog olimlaridan A.Bandura, R.Berns, E.Erikson, Z.Freyd, U.Jeyms, Ch.H.Kuli, H.Kohut, A.Maslou, G.H.Mead, K.Rodjers, A.D.Vinnikott[8] kabi olimlar "Men konsepsiyasi"ni o'zlarining nazariyalari va tadqiqotlari orqali turli aspektlarda o'rgangan. Ushbu ishlanmalar shaxsning o'zini anglash, psixologik salomatlik, ijtimoiy munosabatlar va rivojlanish jarayonlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi. Ammo bunga qaramasdan hozirgi axborot texnologiyalar asrida "Men konsepsiyasini" shakllanishiga aynan tashqi ijtimoiy-psixologik omillar, hali hanuzgacha chuqur o'rganilmaganligi sababli ham ushbu mavzuni dolzarb deb hisobladik.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlar bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan AL-8624042790 "Qizlar va o'smir qizlar uchun psixologik ta'lim bo'yicha multimediya kompleksini yaratish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talaba qizlarda "Men konsepsiyasi"ning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

talaba qizlarda real guruhdagi xulqning asosiy tendensiyalari diagnostikasining "Men konsepsiyasi" bilan bog'liqligi va kurs dinamikasini o'rganish;

talaba-qizlarning "Men konsepsiyasi" shakillanishiga ta'sir etuvchi qadryatlar tizimini o'rganib, ularning mazmun-mohiyati va o'zaro aloqadorligini statistik usullar bilan tahlil qilish;

talaba qizlarda "Men konsepsiyasi" shakllanishinining tarkibiy tuzilishini o'rganish va "Men konsepsiyasi"ning shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki hamda tashqi ijtimoiy-psixologik omillarni hozirgi kundagi holatini o'rganish;

talaba qizlarda "Men konsepsiyasi" va shaxs xususiyatlarini bog'liqligini aniqlash, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma tayyorlab uning samaradorligini tekshirgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi turli hududlaridagi Universitet talaba-qizlaridan jami 1899 nafar respondent jalb qilindi. Shulardan aniq fanlar sohasida ta'lim oluvchi ishtirokchilar 183 nafar, tabiiy fanlar sohasidan 381 nafar ishtirokchi, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidan 1335 nafar talaba-qizlar jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini talaba qizlarada "Men konsepsiyasi"ni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish va tadqiq etish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Belgilangan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi nazariy hamda empirik tadqiqot usullari

[8] Берне Р.В. Я-концепция и воспитание. – М., 1986. (Что такое Я-концепция: 30-66); Теория социального научения Альберта_Бандуры // https://ru.ruwiki.ru/wiki/; Эриксон Э. Детство и общество. – СПб: Ленато, АСТ, 1996. – 592 с.; Фрейд З. Психология бессознательного. – М., 1990; Джемс У. Личность. В книге. Психология личности. – М., 1982; Кули Ч.Х. Человеческая природа и социальный порядок / пер. с англ. под ред. А.Б.Толстова. – М.: Идея-Пресс, Дом интеллектуальной книги, 2000. – 320 с.; Banai E., Mikulincer M & Shaver P. (2005) "Selfobject" Needs in Kohut's Self Psychology: Links with Attachment, Self-Cohesion, Affect Regulation, and Adjustment', Psychoanalytic Psychology. Vol. 22. No. 2. – P. 224-260; Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: 1999; Rogers C. On becoming a person. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1961. – 420 p.

to‘plami qo‘llanildi: Empirik va eksperimental tadqiqotlar jarayonida M.Kun, T.Makpartlendlarning “Men kimman?” metodikasi (V.V.Lazurina modifikatsiyasi), V.Stefansonning “Q-saralash“ metodikasi, M.Snayder tomonidan ishlab chiqilgan “Muloqotda o‘z-o‘zini boshqarish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi, Mak Kraye va P.Kosta tomonidan ishlab chiqilgan “Katta beshlik” so‘rovnomasi, Sh.Shvars tomonidan ishlab chiqilgan “Qadryatlarni o‘rganish” metodikalardan va talaba-qizlarni o‘z-o‘zini baholashga mo‘ljallangan, “O‘z- o‘zimga baho” nomli mualliflik so‘rovnomasi va ma’lumotlarni qayta ishlashning matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talaba-qizlarda refleksiv Menning dinamik xususiyatiga ko‘ra, birinchi va uchinchi kurs talabalarida moliyaviy farovonlik, mulkka ega bo‘lish va hayotdagi moddiy imkoniyatlarga intilish bilan bog‘liq moddiy “Men”ning kuchli ifodalanishi, to‘rtinchi kursda esa shaxsning o‘zini chuqurroq anglashi bilan muloqotchanlikning kuchayishi, ijtimoiy “Men”ning barqarorlashib borishi aniqlangan;

talaba-qizlarning “Men konsepsiyasi” konformizm, an’analar, mehribonlik, unversalizm, rag‘batlantirish, gedonizm, yutuqlarga erishish, xavfsizlik kabi ustuvor normativ-ideallarning qizlarda ijtimoiy qiyofani dinamik rivojlashiga ta’siri tufayli qadriyatlar tizimiga bog‘liq shakllanishi asoslangan;

ta’lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarda talaba-qizlarning faolligi, muloqotchanligi, ustunlikka, hayotda tassurotlarni izlashga va atrofdagilarning diqqatini jalb qilishga intilishi, ekstrovertligi bilan bog‘liq differensial xususiyatlariga ko‘ra “moddiy Men” obrazi o‘quv faoliyatida kuchli namoyon bo‘lishi isbotlangan;

talaba-qizlarning “Men konsepsiyasi”ni shakllanishida shaxsning ijtimoiy rollari bilan bog‘liq kommunikativ, moddiy “Men”i muloqotchanlik, atrofdagilarni diqqatini jalb qilishga intilish va ekstrovertlik fazilatlarini shaxslararo munosabatlarda ustuvor namoyon bo‘lishiga asoslanib “attraksiya” muhim ijtimoiy psixologik xususiyat ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: talaba-qizlarda “Men konsepsiya”si shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar jihatlari ilmiy va amaliy jihatdan sharhlanib, tadqiqot natijalari asosida mualliflik so‘rovnomasi tayyorlangan va amaliyotga tadbiq etilgan;

talaba-qizlarda “Men konsepsiyasi” shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarni aniqlashga doir psixologik metodikalar o‘zaro bog‘liq ekanligi aniqlangan;

talaba-qizlarda “Men konsepsiyasi”ga ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar o‘rganib chiqilib, ularaga oid maqbul ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish hamda ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilab borishga yordam beruvchi zarur konseptual amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishi jarayonida to‘plangan ma’lumotlarning ishonchli darajada ekanligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilgani, tadqiqotdan olingan amaliy natijalarning empirik jihatdan asoslangani, tajribalar ko‘p marotaba

o‘tkazilgan test va so‘rovnomalardan foydalanilgani, olingan amaliy ko‘rsatkichlarning nazariy jihatdan yoritib berilgani, tadqiqot natijalarining miqdoriy ko‘rsatkichlari statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil etilgani, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlab chiqilgani, tadqiqot yuzasidan xulosalar va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani hamda ilmiy jamoatchilik tomonidan muhokama qilingani bilan alohida xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot talaba qizlarda “Men konsepsiyasi” shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni har tomonlama tahlil qilib, bu sohadagi nazariy asoslarni boyitdi. Ayniqsa, “Men konsepsiyasi”ning shaxsiy va ijtimoiy o‘zlikni anglashdagi o‘rni hamda uning rivojlanish bosqichlari aniqlab berildi. Tadqiqotning ilmiy usullari psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarining kesishuvini ifodalaydi. Bu turli fanlararo bog‘lanishlarni mustahkamlash va yangi konsepsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Olingan empirik ma’lumotlar asosida talaba qizlarning “Men konsepsiyasi” rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillarning muhim jihatlari ochib berildi va bu natijalar yangi ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati natijalari asosida ta’lim muassasalarida talaba qizlarning psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar shaxsiy o‘zlikni anglash va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga qaratilgan. Talaba qizlarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, universitetlarda psixologik yordam markazlarini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Tadqiqot oilaviy muhitning “Men konsepsiyasi”ga ta’sirini aniqlash orqali oilalar uchun maxsus maslahat berish dasturlarini ishlab chiqish zaruriyatini belgilab berdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talaba qizlarda “Men konsepsiyasi” shakillanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarini tadqiq etish bo‘yicha erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talaba-qizlarning “Men konsepsiyasi” shakillanishiga ta’sir etuvchi “konformizm”, “an’analar”, “mehribonlik”, “universalizm”, “mustaqillik”, “rag‘batlantirish”, “gedonizm”, “yutuqlarga erishish”, “ustunlik qilish”, “xavfsizlik” kabi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar tizimli ravishda aniqlanib, ularning mazmun-mohiyati va o‘zaro aloqadorligini dalillashga oid ilmiy natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazning 5-son buyrug‘iga asosan bo‘lg‘usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda “Itimoiy psixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazning 2025-yil 10-martdagi PM-317a son ma’lumotnomasi). Natijada talaba-qizlarning “Men konsepsiyasi” shakillanishiga ta’sir etuvchi qadryatlar tizimini o‘rganish imkoni kengaytirilgan;

talaba-qizlarda “Men konsepsiyasi”ni shakllantiruvchi sabablar ularga ta’sir etuvchi “kurs dinamikasi”, “mustaqillik”, “muloqotmandlik”, “kurashga tayyorlik” empirik tadqiqotlar orqali aniqlanib, diagnostik vositalar yordamida isbotlashga oid natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazning 5-son buyrug‘iga asosan bo‘lg‘usi amaliyotchi psixologlarni

tayyorlashda “Ijtimoiy psixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazning 2025-yil 10-martdagi PM-317a son ma’lumotnomasi). Natijada talaba qizlarda real guruhdagi xulqning asosiy tendensiyalari diagnostikasini “Men konsepsiyasi” bilan bog‘liqligi va kurs dinamikasini o‘rganishga sharoit yaratilgan;

talaba-qizlarda “Men konsepsiyasi”ning tarkibiy tuzilmasi aniqlanib, “jismoniy Men”, “moddiy Men”, “kommunikativ Men”, “ijtimoiy Men”, “faol Men”, “istiqboldagi Men” komponentlari va ularga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, ya’ni shaxslararo munosabatlar, kommunikativ kompitentlik, hozirgi kundagi holati empirik tadqiqot va statistik tahlil asosida o‘rganilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi dalillashga oid ma’lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazning 5-son buyrug‘iga asosan bo‘lg‘usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda “Ijtimoiy psixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazning 2025-yil 10-martdagi PM-317a son ma’lumotnomasi). Natijada talaba qizlarda “Men konsepsiyasi” shakllanishining tarkibiy tuzilishini o‘rganish samaradorligi oshgan;

talaba-qizlarda “Men konsepsiyasi” shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash maqsadida, maxsus ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma ishlab chiqilib, so‘rovnomaning samaradorligi eksperiment asosida sinovdan o‘tkazilgan holda, amaliy natijalar orqali isbotlangan va shu bilan birga, “Men konsepsiyasi” hamda shaxs xususiyatlari bo‘lgan “faollik-pssivlik”, “attraksiya” “ekstraversiya-introversiya”, “ustunlik qilish – bo‘ysunish” bilan o‘zaro korrelyatsion bog‘liqliklarni isbotlashga oid natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazning 5-son buyrug‘iga asosan bo‘lg‘usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda “Ijtimoiy psixologiya” moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazning 2025-yil 10-martdagi PM-317a son ma’lumotnomasi). Natijada talaba qizlarda “Men konsepsiyasi” va shaxs xususiyatlarini bog‘liqligini aniqlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shu hisobda, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishi 163 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari ifodalangan, tadqiqot obyekti ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natajalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Men konsepsiyasi shakllanishining nazariy metodologik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda “Men konsepsiyasi” tushunchasi shaxsning o‘zini anglash jarayoni sifatida tavsiflanib, bu tushunchaning shakllanishiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar o‘rganib chiqilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik omillar, oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va madaniy muhitning “Men konsepsiyasi” shakllanishidagi o‘rni ilmiy izohlangan. Psixologik jarayonlar ham alohida o‘rganilib “Men konsepsiyasi” tarkibiy qismlari sifatida shaxsning qadr-qimmati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, intilishlari va shaxsiy qadriyatlari tahlil qilingan. Bu bobda nazariy ko‘rsatmalar asosida tadqiqotning ilmiy poydevori yaratilib, shaxsning rivojlanishi va jamiyatdagi ijtimoiy muhitning o‘zaro aloqasi aniq ko‘rsatib berilgan.

Disseratasiyaning ikkinchi bobi **“Talaba qizlarda “Men konsepsiyasi” shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganishning uslubiy tamoyillari”** deb nomlanib unda tadqiqotni tashkil etishga doir jihatlar yoritib berilgan. Tadqiqotimizda 1899 nafar talaba-qizlar ishtirok etishdi. Talaba qizlarning ijtimoiy moslashuvchanligi, o‘z-o‘ziga baho berish darajasi va o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liq xususiyatlar ochib berilgan. Mazkur natijalar asosida tadqiqot predmeti bo‘lgan “Men konsepsiyasi”ni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni yanada chuqur tushunish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotda “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlarining ta’lim bosqichiga bog‘liqligi statistik tahlil qilib chiqildi (1-rasm).



1-rasm. “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlarining ta’lim bosqichiga bog‘liqligi (Kruskal-Uollis H mezoni bo‘yicha).

“Moddiy Men” (H=26,44; p<0,01) shkalasi shaxsning moddiy jihatlari, moliyaviy farovonlik, mulkka ega bo‘lish va hayotdagi moddiy imkoniyatlarga bo‘lgan e’tiborini aks ettiradi. 1- va 3-kurs talabalari bu qadriyatlarga yuqori darajada e’tibor berishgan. 2-kursda esa bu ko‘rsatkich biroz kamaygan, lekin eng katta pasayish 4-kursda kuzatiladi. Ushbu farqning sababi shundaki, 4-kurs talabalari ta’limni tugatish yaqinlashgani sababli moliyaviy barqarorlik va moddiy qadriyatlarga kamroq e’tibor berishlari mumkin. Bu davrda ular ko‘proq kelajakdagi rejalarga e’tibor qaratishi mumkin. 1- va 3-kursda esa talabalar moddiy ta’minot hamda moliyaviy farovonlikka ko‘proq e’tibor berishadi. “Refleksiv Men” (H=11,17; p<0,01) shkalasi shaxsning o‘zini anglash, o‘zini baholash va ichki o‘zlikni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Bu shkalada eng past ko‘rsatkich 3-kursda kuzatilgan, bu talabalarning bu davrda o‘zlarini anglashga kamroq e’tibor qaratishlarini anglatadi. 1- va 2-kurs talabalari bu ko‘rsatkich bo‘yicha nisbatan yuqori darajada qolgan, lekin eng yuqori ko‘rsatkich 4-kursda kuzatiladi. 4-kurs talabalari ta’limni yakunlash arafasida o‘zlarini va kelajakdagi rolini qayta anglab, refleksiya jarayoniga ko‘proq e’tibor berishligi sabab bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotimiz davomida talaba-qizlarning o‘zi haqidagi tushuncha va real guruhdagi xulqning asosiy tendensiyalari diagnostikasi o‘rganish maqsadida V.Stefansonning “Q-saralash” metodikasi ko‘rsatkichlarining ta’lim bosqichiga bog‘liqligi natijalari o‘rganilganda, Mustaqillilk (H=21,83; p<0,01) shkalasida 1-kursda mustaqillik darajasi eng yuqori (1032,98) bo‘lib, keyingi kurslarda bu ko‘rsatkich sezilarli pasayib boradi. 3-kursda bu daraja eng past (885,28) bo‘lib, 4-kursda biroz ko‘tarildi (921,05). Bu natijalar shuni anglatadiki, 1-kursda talabalar orasida mustaqillik darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, bu ularning yangi muhitga kirib, o‘zini namoyon qilishga va mustaqil qarorlar qabul qilishga intilishi bilan bog‘liq. 2-kurs va 3-kursda mustaqillik darajasi pasayadi, bu talabalarning ta’lim jarayoniga moslashishi hamda jamoaviy ishlarga ko‘proq e’tibor qaratishi bilan bog‘liq. Ular bu bosqichlarda o‘zini ko‘proq guruhda ishlashga moslashtiradi, shuning uchun mustaqillik darajasi biroz pasayadi. 4-kursda mustaqillik darajasi yana ko‘tariladi, chunki talabalarning bitiruv arafasida kelajakdagi hayotga tayyorlanayotgani ularni mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishga undaydi. Ular kasbiy faoliyatga o‘tishga tayyorlanishlari sababli, mustaqil bo‘lish zarurligini his qilishlari sababli bo‘lishi mumkin.

1-jadval

V.Stefansonning “Q-saralash” metodikasi ko‘rsatkichlarining ta’lim bosqichiga bog‘liqligi (Kruskal-Uollis H mezoni bo‘yicha)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				H	p
	1-kurs (N=612)	2-kurs (N=1002)	3-kurs (N=226)	4-kurs (N=58)		
Mustaqillik	1032,98	914,64	885,28	921,05	21,83	**0,000****
Muloqotmandlik	910,64	976,39	910,68	1046,32	8,55	**0,036***
«Kurash»ga tayyorlik	1008,62	908,09	957,24	1010,83	13,78	**0,003****

Izoh: * p<0,05; ** p<0,01

Muloqotmandlik (H=8,55; p<0,05), shkalasi bo‘yicha natijalar diqqat bilan o‘rganilganda 4-kurs talabalari orasida muloqotmandlik darajasi eng yuqori (1046,32), bu ularning ta'lim jarayonida va bitiruv arafasida ijtimoiy aloqalarga ko‘proq e’tibor berishini ko‘rsatadi. 1-kurs va 3-kursda bu ko‘rsatkich pastroq, ammo 2-kursda o‘rtacha darajada oshib boradi. Buni quydagicha izohlash mumkin, ya’ni talabalar o‘rtasidagi ijtimoiy muloqot va hamkorlik tajribalari ta’lim jarayonida vaqt o‘tishi bilan o‘sib borishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 4-kurs talabalari jamiyatda va kelgusida ishga joylashishda ijtimoiy aloqalarini mustahkamlashga intilishadi. “Kurash”ga tayyorlik (H=13,78; p<0,01) shakalsi bo‘yicha ham ishonchli farq kuzatildi, ushbu natijalarni o‘rganilganda 1-kurs talabalari orasida “kurash”ga tayyorlik darajasi yuqori bo‘lib, o‘rtacha rang 1008,62ga teng. Bu shuni ko‘rsatadiki, 1-kurs talabalarida yangi muhitga kirib, o‘z o‘rnini topishga, o‘zini ko‘rsatishga va yangi maqsadlarga erishishga bo‘lgan intilish kuchli. Talabalar o‘zlariga nisbatan yuqori motivatsiyaga ega bo‘lib, yangi muhitda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun faoliyat va “kurash”ga tayyor bo‘lishadi. 2-kurs talabalari orasida “kurash”ga tayyorlik darajasi pasayib, o‘rtacha rang 908,09ga teng bo‘ladi. Bu pasayish talabalarning o‘quv jarayoniga moslashishi va ta’lim yuklamasining ortishi bilan izohlanadi. 2-kurs talabalari moslashuv davrini o‘tab, o‘z o‘rnini topgan bo‘lsa-da, ularning motivatsiyasi va “kurash”ga tayyorlik darajasi biroz pasaygan bo‘lishi mumkin. 3-kurs talabalari orasida “kurash”ga tayyorlik darajasi biroz oshib, o‘rtacha rang 957,24ga yetadi. Bu bosqichda talabalar o‘qish va amaliyotda ko‘proq tajriba orttirgan bo‘lib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari uchun kurashishga tayyor bo‘lishadi. Bu o‘rta bosqichda talabalarning motivatsiyasi va mustahkamligi kuchayishi kuzatiladi. 4-kurs talabalari orasida “kurash”ga tayyorlik darajasi yana oshib, o‘rtacha rang 1010,83ga yetadi, bu esa eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. 4-kurs talabalari bitiruv arafasida bo‘lganliklari sababli, o‘z maqsadlariga erishish va kasbiy hayotga tayyorgarlik ko‘rish uchun kuchli motivatsiya hamda “kurash”ga tayyorlikka ega. Bu bosqichda talabalar o‘zlari uchun yangi hayot va kasbiy faoliyat eshiklarini ochishga tayyorlanadilar.

“Tashqi ko‘rinishingiz sizni qoniqtiradimi?” savoliga berilgan javoblarning “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi Mann Uitni U mezoni bo‘yicha solishtirildi (2-rasm).

“Ijtimoiy Men” (U=94482,5; p<0,01), natija bilan ishonchli farqni ko‘rishimiz mumkin. Umuman “ijtimoiy Men” o‘zimizni boshqalarga nisbatan qanday qabul qilishimizni anglatadi. Bunga munosabatlar o‘rnatish, hamdardlik va muloqot kiradi. Sog‘lom yoki unchalik sog‘lom bo‘lmagan “ijtimoiy Men” umumiy psixologik farovonlikka va hayot maqsadlariga erishish qobiliyatiga ham ta’sir qiladi. M.Kun, T.Makpartlend, V.V.Lazurinaning modifikatsiyasi bo‘yicha ushbu shkala jinsni to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilash, jinsiy rol, o‘quv va professional rol pozitsiyasi, oilaviy mansublik, aloqalar, etnik-mintaqaviy o‘ziga xoslikni o‘z ichiga oladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, “ijtimoiy Men”i yuqori bo‘lgan sinaluvchilarda tashqi ko‘rinishidan qoniqish ham yuqori bo‘lar ekan.



2-rasm. “Tashqi ko‘rinishingiz sizni qoniqtiradimi?” savoliga berilgan javoblarning “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi (Mann-Uitni U mezoni bo‘yicha).

“Moddiy Men” (U=104758,5; p<0,01) natijaga ko‘ra, tashqi ko‘rinishidan qoniqmaganlarda yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. M.Kun bo‘yicha “moddiy men” – bu bizning shaxsiyatimizning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u moddiy jihatlar bilan bog‘liq. Bu bizning kundalik hayotda o‘z qadr-qimmatimiz va ishonchimizni baholashni o‘z ichiga oladi. Bu bizning qobiliyatlarimiz, yutuqlarimiz, shaxsiy xususiyatlarimiz va ijtimoiy rollarimiz obyektivi orqali o‘zimizni qanday ko‘rishimiz nazarda tutilgan. Bizning tadqiqotimizda tashqi ko‘rinishidan qoniqmaganlarda “moddiy Men”i yuqori natijani ko‘rsatayotganligini ko‘rishimiz mumkin, bunga sabab tashqi ko‘rinishidan qoniqmaydigan insonlar doimiy ravishda “moddiy Men”ni to‘ldirish uchun, yani kompensatsiya qilishga intilishlari bo‘lishi mumkin. “Jismoniy Men” (U=109501,5; p<0,05), tashqi ko‘rinishidan qoniqqanlarda yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tabiiyki, “jismoniy Men” bu insonning o‘z fiziologik holatidan va tashqi ko‘rinishi, ya’ni qomati, tuzulishi, xatti-harakatlaridan qoniqish bilan belgilash mumkin. Shu sababli, ham tashqi ko‘rinishidan qoninqqan sinaluvchilarda “jismoniy Men” yuqori bo‘lishi tabiiy holat bo‘lishi mumkin. “Faol Men” (U=107389; p<0,01) natijani ko‘rsatmoqda, ya’ni tashqi ko‘rinishidan qoniqganlarda faol meni yuqori bo‘lar ekan. M.Kun metodikasi bo‘yicha “faol Men” ko‘rsatkichi darslar, tadbirlar, qiziqishlar, sevimli mashg‘ulotlar va jismoniy faollikka moyillikni inobatga oladi. Shu sababli, o‘zini har tomonlama to‘laqonli his qilgan sinaluvchilarda “faol Men” darajasi yuqori bo‘lishi tabiiy holdir. M.Kun metodikasi bo‘yicha solishtirilgan so‘rovnomamizdagi “kommunikativ Men”, “istiqboldagi Men”, “refleksiv Men” ko‘rsatkichlari o‘rtasida ishonchli farq kuzatilmadi.

“Plastik jarrohlik amaliyotini o‘tkazishni xohlagan bo‘larmidingiz?” savoliga berilgan javoblarning “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi o‘rganilganda quyidagi natijalarni aniqladik (3-rasm).



3-rasm. “Plastik jarrohlik amaliyotini o‘tkazishni xohlagan bo‘larmidingiz?” savoliga berilgan javoblarning “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatgichlariga bog‘liqligi (Mann-Uitni U mezoni bo‘yicha).

Natijalarga ko‘ra, “ijtimoiy Men” yuqori bo‘lgan shaxslar orasida plastik jarrohlikka qiziqish kam. Demak, ijtimoiy me’yorlarga bog‘liqlik va jamiyatdagi maqomlar plastik jarrohlikka moyillikni pasaytiradi. “Kommunikativ Men” ($U=129267,5$; $p<0,01$) shaxsning boshqalar bilan aloqa qilishdagi o‘ziga xosligiga bog‘liq. “Kommunikativ Men”i yuqori bo‘lgan shaxslar orasida plastik jarrohlikni istaganlar ko‘proq. Bu shuni ko‘rsatadiki, boshqalar bilan bo‘ladigan o‘zaro aloqalarni muhim deb bilgan shaxslar tashqi ko‘rinishga ko‘proq e’tibor berishadi. Yana bunday shaxslar ko‘proq kommunikativ bo‘ladilar. Ular boshqalar bilan aloqalarni rivojlantirishga, o‘zlarini ijtimoiy jihatdan tasdiqlashga ko‘proq intilishadi. Ushbu farq muloqot va boshqalarga o‘zini namoyon etish xohishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. “Moddiy Men” ($U=130962$; $p<0,01$) shaxsning moddiy boyliklar va tashqi ko‘rinishga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. “Moddiy Men”i yuqori bo‘lgan shaxslar orasida plastik jarrohlikka qiziqish kuchli. Bu natija moddiy va tashqi atributlarni muhim deb bilgan shaxslar plastik jarrohlik orqali tashqi ko‘rinishlarini yaxshilashni istashlarini ko‘rsatadi. “Faol Men” ($U=135991$; $p<0,05$) shaxsning o‘zini harakatdagi, faol va ishchan deb bilishini anglatadi. “Faol Men” yuqori bo‘lgan shaxslar orasida plastik jarrohlikka qiziqish ko‘proq. Bu faol va hayotda harakatchan bo‘lgan shaxslar o‘z tashqi ko‘rinishlariga ham alohida e’tibor berishlari mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, shaxsning o‘zini qanday baholashi va ijtimoiy aloqalarga urg‘u berishi plastik jarrohlikka qiziqishiga ta’sir qiladi. “Ijtimoiy Men va “refleksiv Men” yuqori bo‘lgan shaxslar plastik jarrohlikka qiziqmaydi, chunki ular jamiyatdagi me’yorlarga va o‘zining ichki hissiyotiga ko‘proq e’tibor qaratadi.

“Ijtimoiy tarmoqlarda taqlid qiladigan insonlaringiz bormi?” savoliga berilgan javoblarning “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi o‘rganilganda ushbu rasmdagi natijalarni ko‘rishimiz mumkin (4-rasm).



4-rasm. “Ijtimoiy tarmoqlarda taqlid qiladigan insonlaringiz bormi?” savoliga berilgan javoblarning “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi (Mann-Uitni U mezoni). bo‘yicha

“Moddiy Men” (U=223280,5; p<0,05) shkalasi shaxsning moddiy farovonlikka, mol-mulkka ega bo‘lish va yashash sharoitlariga bo‘lgan e’tiborini aks ettiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda taqlid qiladigan insonlari bor bo‘lgan respondentlar “moddiy Men”ni nisbatan yuqoriroq moyillik ko‘rsatishgan. Bu ularning ijtimoiy tarmoqlardagi insonlardan ta’sirlanib, moddiy muvaffaqiyat va hayot sifatini yaxshilashga intilishlarini ko‘rsatadi. “Istiqboldagi Men” (U=213702; p<0,01) shkalasi shaxsning kelajakka qaratilgan rejalari, maqsadlari va umidlarini ifodalaydi. “Yo‘q” javobini bergan respondentlar bu shkalada yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, istiqbolga ko‘proq e’tibor qaratishlarini bildiradi. Taqlid qiladigan insonlari bor bo‘lganlar esa bu ko‘rsatkich bo‘yicha pastroq natijaga ega bo‘lgan, bu ularning kelajakka nisbatan o‘ziga xos istiqbol yoki shaxsiy maqsadlar bilan ko‘proq shug‘ullanishdan ko‘ra, joriy vaziyatdagi qadriyatlarga e’tibor berishlari mumkinligini ko‘rsatadi. Taqlid qilmaydiganlar istiqbolni mustaqil rejalashtirishga ko‘proq moyil.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Talaba qizlarda “Men konsepsiyasi” shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro bog‘liqligi”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda talaba qizlarning “Men konsepsiyasi”ni shakllantirishda, shaxs xususiyatlari diagnostikasi, ta’lim tizimi va jamiyatdagi gender yondashuvlar muhim rol o‘ynanishi aniqlangan. Olingan natijalar asosida “Men konsepsiyasi”ni rivojlantirishga qaratilgan psixologik dasturlarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash zarurligi belgilab berilgan. Tadqiqotdan olingan xulosalar oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatida samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, dissertatsiya natijalari talaba qizlarda “Men konsepsiyasi”ni shakllantirish va ijtimoiy muhitni rivojlantirishda muhim ilmiy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu izlanishlar nafaqat talaba qizlar uchun, balki ijtimoiy-psixologik sohada ishlaydigan mutaxassislar uchun ham katta ahamiyatga ega.

“Tashqi ko‘rinishingiz sizni qoniqtiradimi?” savoliga berilgan javoblarning R.MakKraye va P.Kostaning “Katta beshlik” so‘rovnomasi bo‘yicha “ekstraversiya-introversiya” ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi haqida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bunday

insonlar yuqori ball to‘plaganda quyidagi xususiyatlarini shaxs o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi.

2-jadval

“Tashqi ko‘rinishingiz sizni qoniqtiradimi?” savoliga berilgan javoblarning R.MakKraye va P.Kostaning “Katta beshlik” so‘rovnomasi bo‘yicha Ekstraversiya-Introversiya ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi (Mann-Uitni U mezoni bo‘yicha)

Ko‘rsatkichlar	Tashqi ko‘rinishingiz sizni qoniqtiradimi? (o‘rtacha ranglar)		U	p
	Ha (n=1755)	Yo‘q (n=143)		
Faollik-passivlik	934,0	1139,8	98272	**0,000****
Ustunlik qilish – bo‘ysunish	940,7	1057,9	109984	**0,013***
Muloqotmandlik - odamovilik	941,3	1049,5	111179	**0,022***
Taassurotlar izlash-qochish	940,4	1060,8	109572	**0,011***
Diqqatni jalb etish – qochish	939,3	1074,9	107553	**0,004****
Ekstraversiya-introversiya	934,4	1134,3	99050,5	**0,000****

Faollik-passivlik (U=98272; p<0,01) natijani ko‘rsatmoqda, bunda ko‘rishimiz mumkin tashqi ko‘rinishidan qoniqmagan sinaluvchilarda faollik yuqori darajani ko‘rsatmoqda. Bunday insonlar ekstraversiya yuqori bo‘lgan insonlar bo‘lib ularda o‘z tashqi ko‘rinishidan qoniqmaganlarda diqqat markazga intilish yuqori bo‘lganligi sabab ularda faollik yuqori bo‘lishi mumkin.

Ustunlik qilish – bo‘ysunish shkalasi bo‘yicha solishtirganimizda (U=109984; p<0,05), tashqi ko‘rinishidan qoniqmagan sinaluvchilarda “ustunlik qilish” yuqori natijani ko‘rsatayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni ekstravertlarda ustunlik qilish yuqori bo‘lishi tabiiy, shuning uchun o‘z tashqi ko‘rinishlaridan qoniqmagan bo‘lsalarda, ammo ekstravertlik taraflari ustunlik qilganligi tufayli ustunlik qilish ham yuqori bo‘lishi mumkin.

Muloqotmandlik-odamovilik shkalasini “Tashqi ko‘rinishingiz sizni qoniqtiradimi?” degan savol bilan solishtirganimizda (U=111179; p<0,05), muloqotmandlik yuqori darajani ko‘rsatayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga sabab ekstravert insonlarda muloqotmadlik yuqori bo‘lishi oddiy holat deb tushunsak bo‘ladi, shu sababli, ular tashqi ko‘rinishidan qoniqmasliklarini tan olib o‘z his-tuyg‘ularini yashirmasdan oshkor qilishlari ham muloqotmandlik yuqori darajadaligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ekstravertlar atrofdagilar bilan tez kirishib keta olishlari muloqotmadlik yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Taassurotlar izlash-qochish (U=109572; p<0,05) shkalasi bo‘yicha solishtirganimizda, tashqi ko‘rinishidan qoniqmagan sinaluvchilarda taassurotlar izlash yuqori darajani ko‘rsatayotganligini ko‘rishimiz mumkin, bunga sabab ekstravert insonlar tashqi ko‘rinishdan qoniqmagan bo‘lsalarda, ular taassurotlar izlashdan to‘xtamasliklariga sabab ekstravert bo‘lganliklari bo‘lishi mumkin. Yoki bo‘lmasa, tashqi ko‘rinishidan qoniqmagan insonlar doimiy ravishda o‘z-o‘zlarini to‘laqonli his qilishlari uchun doimiy izlanishda bo‘lganliklari sabab ham bo‘lishi mumkin.

Diqqatni jalb etish-qochish (U=107553; p<0,01) shkalasi bo‘yicha solishtirganimizda, tashqi ko‘rinishingiz sizni qoniqtiradimi degan savolga yo‘q deb javob berganlar foizi yuqori ekan. Ya’ni diqqatni jalb etish yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga sabab tashqi ko‘rinishidan qoniqmaganliklari tufayli, ijtimoiy muhitda, jamiyatni ichida diqqat markazda bo‘lishga doim intilganliklari sabab, hozirgi kunda aynan ayollar orasida tashqi ko‘rinishga o‘zgartirish kiritish, doimiy ravishda kosmetologlarga ehtiyoj sezayotganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Ekstraversiya-introversiya (U=99050,5; p<0,01) shkalalarini so‘rovnoma bilan solishtirilgandagi natijaga ko‘ra, tashqi ko‘rinishidan qoniqmaganlarda ekstraversiya yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tabiiyki, ekstravertlar doim o‘zlarini ochiqliklari, jamiyatda muloqatmandliklari bilan ustunlik qilishlari sabab tashqi ko‘rinishidan qoniqmaganlarda ham ekstraversiya yuqori natijani ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotimizda qadryatlar tizimini o‘rganish maqsadida Sh.Shvars tomonidan ishlab chiqilgan “Qadryatlarni o‘rganish” so‘rovnomasi va M.Kun, T.Makpartlendlarning “Men kimman?” metodikasi (V.V.Lazurina modifikatsiyasi) bo‘yicha korrelyatsion aloqadorliklar aniqlandi. Shvartsning “Qadriyatlarni aniqlash” so‘rovnomasidagi normativ ideallar shkalalari va “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar o‘rganilganda, konformizm va “ijtimoiy Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi (r=0,058; p<0,05). Natijaga ko‘ra, konformizm va “ijtimoiy Men” o‘rtasidagi musbat bog‘liqlik shaxsning ijtimoiy rollarini bajarishda ijtimoiy qoidalarga moslashishga moyilligini ko‘rsatadi. Shaxs ijtimoiy normalarga rioya qilish orqali o‘z ijtimoiy mavqeyini mustahkamlaydi. Konformizm va “moddiy Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi manfiy korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi (r=-0,131; p<0,01). Manfiy bog‘liqlik moddiy qadriyatlarni yuqori baholaydigan shaxslarning konformistik qoidalarga kamroq moslashishini ko‘rsatadi. Bunday shaxslar moddiy manfaatlarni ustuvor qo‘yib, ijtimoiy normalarga rioya qilishga kamroq e’tibor beradilar.

Konformizm va istiqboldagi men qadryati tahlilida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi (r=0,063; p<0,01). Musbat bog‘liqlik shaxsning kelajakdagi rejalari va ijtimoiy qoidalarga moslashishga moyilligini bildiradi. Shaxs kelajakdagi maqsadlariga erishishda ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishni muhim deb biladi. Konformizm va “refleksiv Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi (r=0,120; p<0,01). Musbat bog‘liqlik shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyati va konformizm o‘rtasidagi bog‘liqlikni bildiradi. Shaxs o‘zini tahlil qilgan holda jamiyat qoidalariga moslashishga intiladi. An’analar va “ijtimoiy Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi (r=0,127; p<0,01). Musbat bog‘liqlik an’anaviy qadriyatlarni yuqori baholaydigan shaxslarning ijtimoiy rollarini bajarishda muvaffaqiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Shaxs an’analarga rioya qilish orqali ijtimoiy munosabatlarda o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

3-jadval

Shvartsning “Qadriyatlarni aniqlash” so‘rovnomasidagi normativ ideallar shkalalari va “Men kimman?” metodikasi ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar (Spirman korrelyatsion koeffitsiyenti bo‘yicha)

Normativ ideallar	Ijtimoiy Men	Kommunikativ Men	Moddiy Men	Jismoniy Men	Faol Men	Istiqboldagi Men	Refleksiv Men
Konformizm	**0,058***	-0,014	**-0,131****	0,037	-0,005	**0,063****	**0,120****
An’analar	**0,127****	0,004	**-0,092****	**0,064****	-0,042	-0,036	0,013
Mehribonlik	**0,085****	0,04	**-0,128****	-0,003	-0,034	-0,005	**0,081****
Universalizm	**0,066****	0,012	**-0,094****	0,039	-0,024	0,02	**0,071****
Mustaqillik	0,029	-0,041	**-0,055***	**0,167****	-0,001	0,031	**0,056***
Rag‘batlantirish	**0,076****	0,006	-0,021	**0,069****	**-0,097****	-0,004	-0,026
Gedonizm	**0,081****	-0,009	-0,011	**0,077****	**-0,097****	-0,039	0,005
Yutuqlarga erishish	**0,048***	**-0,059***	-0,039	**0,088****	-0,041	0,003	0,01
Ustunlik qilish	0,017	**-0,083****	**0,059***	**0,124****	**-0,064****	-0,017	**-0,073****
Xavfsizlik	**0,073****	-0,022	**-0,139****	**0,054***	-0,032	0,03	**0,123****

Izoh: * $p<0,05$; ** $p<0,01$

An’analar va “moddiy Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi manfiy korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi ($r=-0,092$; $p<0,01$). Moddiy qadriyatlarga ustuvorlik beruvchi shaxslar odatda an’anaviy qadriyatlarga kamroq e’tibor qaratishadi. Bu manfiy bog‘liqlik moddiy manfaatlarning an’anaviy qadriyatlarni cheklashi mumkinligini ko‘rsatadi. An’analar va “jismoniy Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi ($r=0,064$; $p<0,01$). Musbat bog‘liqlik jismoniy holat va an’anaviy qadriyatlarga moslashuvchanlikni bildiradi. Bu shaxslar jismoniy jihatdan barqaror bo‘lib, an’anaviy qadriyatlarga e’tibor berishga moyildir. Mehribonlik va “ijtimoiy Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi ($r=0,085$; $p<0,01$). Mehribonlik qadriyatlari va ijtimoiy rollarni bajarish o‘rtasidagi musbat bog‘liqlik shaxsning boshqalar bilan munosabatlarini yaxshilashga intilishini ko‘rsatadi. Mehribonlik ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Mehribonlik va “moddiy Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi manfiy korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi ($r=-0,128$; $p<0,01$). Moddiy qadriyatlarga ustuvorlik beruvchi shaxslar mehribonlikka kamroq e’tibor qaratishadi. Moddiy manfaatlarga ustuvorlik, boshqalar bilan hamkorlik qilishni cheklashi mumkin. Mehribonlik va “refleksiv Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi ($r=0,081$; $p<0,01$). Musbat bog‘liqlik shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilish va mehribonlik ko‘rsatishga intilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni bildiradi. Shaxs o‘z-o‘zini anglash orqali boshqalarga nisbatan ko‘proq mehribonlik ko‘rsatadi. Universalizm va “ijtimoiy Men” qadryati tahlilida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi ($r=0,066$; $p<0,01$). Universalizm qadriyatlari va

